

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

V.O.Gofurova

Environmental and socio-cultural impact of tourism	6
--	---

FALSAFA

M.A.Mamatov, Sh.M.Mallayeva G.R.Mannobova

Yangi O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik siyosati amalda (Farg'ona viloyati misolida)	10
---	----

A.A.Qambarov, M.A.Abdusalimova

Qo'qon adabiy muhitini rivojlantirishda ayollarning ro'li	14
---	----

A.A.Abduvaxidov

Ma'rifatparvarlik fenomenining asosiy g'oyasi, vujudga kelishi va rivojlanishi	18
--	----

I.A.Asatulloev

Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida "sog'lom jamiyat"ni shakllantirish vazifalari va istiqbollari	23
---	----

S.S.Sodiqov

Yangi O'zbekistonni barpo etishda yoshlar faol ijtimoiy pozitsiyasining ahamiyati	27
---	----

A.A.Abdusalomov

Jadidchilikda tarix va ta'lim masalalari.....	33
---	----

M.R.Axmadova

Ma'naviy targ'ibot ishlarini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning o'rni	36
---	----

Sh.A.Dolimov

Yangi O'zbekistonda maktab ta'limidagi modernizatsiya jarayonlarining sinkretlashuv xususiyatlari va uning ijtimoiy-falsafiy jihatlari.....	40
---	----

G.M.Ravshanova

Axborotlashgan jamiyat rivojining innovatsion-ma'rifiy asoslari.....	43
--	----

D.S.Raxmatova

Xoja Orif Revgariy hayoti va ma'naviy merosi	48
--	----

N.T.Xolikov

Globallashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishining falsafiy-konseptual tahlili	54
--	----

S.S.Mamatkadirov

Yoshlar mediamadaniyatini rivojlantirishda davlat axborot siyosatining ustuvor vazifalari va yo'nalishlari	58
--	----

Sh.E.Daniyarov

Jadidlar harakati va madaniy uyg'onishning falsafiy asoslari.....	62
---	----

U.B.Maxtumova

Ommaviy madaniyat va yoshlar: madaniy qadriyatlarga tahdid yoki imkoniyat.....	67
--	----

O'.M.Xamroqulov

Yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning o'rni	70
---	----

Y.Y.Turobov

XVIII-XIX asr mutafakkirlari merosida axloq tamoyillari	75
---	----

Sh.M.Xaydarova

Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlarni yakdil maqsadga yo'naltirishning istiqbolli vazifalari	82
---	----

D.M.Xusanov

Postmodern jamiyatda axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi dialektikasi	86
--	----

F.M.Usarov

Axborotlashgan jamiyat sharoitida jamoat xavfsizligi konsepsiyasini amalga oshirishning strategik asoslari.....	90
---	----

M.M.Mamasaliyev

O'zbekistonda o'zgalarga toqatsizlikni kuchayib borishiga sabab bo'layotgan ijtimoiy muammolar tahlili.....	93
---	----

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Orif Revgariyning tug'ilgan yili va vafot etgan sanasi to'g'risida O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori Komiljon Rahimovning "Xoja Orif Revgariy va uning "Orifnoma" asari qo'lyozma nusxalari haqida" nomli maqolasida Orif Revgariyning tug'ilgan va vafoti etgan sanalari to'grisida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: jumladan, «Xulosat ul-mavohib as-sarmadiya» asari muallifi Najmiddin ibn Muhammad Amin Kurdiy, manbasini ko'rsatmagan holda, Xoja Orif Revgariyning 1165-yilda tug'ilganligi to'g'risidagi ma'lumotni keltiradi. Uning vafoti sanasi esa turli manbalarda 1219, 1220, 1228, 1236, 1251 va 1315 yillar deb ko'rsatilgan. Masalan, Badriddin Sirhindiy (1594–658) 1219 yoki 1220, Muhammad Tolib (1608–1673) 1228, "Orifnoma" asari qo'lyozmasi kotibi Shermuhammad Naqshbandiy 1237, Kamoliddin Haririyoza (1850–1881) 1251 va Sulton Muhammad Doroshukuh (1615–1659) 1315 yilni Revgariyning vafoti sanasi sifatida eslatishadi. 1913 yili Nurota hokimi Mir Yo'ldoshbiy tomonidan Xoja Orif Revgariy maqbarasidagi devorga o'rnatilgan marmar lavhada ham uning 1315 yili vafot etgani eslatilgan. Turkiyalik tasavvufshunos Hasan Komil Yilmaz aniq bir manbaga havola qilmagan holda Revgariyning 1165 yili dunyoga kelganligini ma'lum qilarkan, xojagon silsilasi ikkinchi pirining yuz yil chamasi yashaganidan kelib chiqqan holda, uning 1262 yili vafot etganini taxmin qiladi.

Ravgariyning to'liq nomi uning qalamiga mansub "Orifnoma" asarida Xoja Muhammad Orif ibn Ma'ruf Revgariy ko'rinishida keltirilgan. Biroq uning nisbasi turli manbalarda turli ko'rinishlarda eslatiladi. Jumladan, uning nisbasi ushbu so'fiy qalamiga mansub "Orifnoma", shuningdek, Fazlulloh ibn Ro'zbehonning (1457–1530) "Manoqibi Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni", muallifi noma'lum «Maqomoti Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni va Xoja Orif Revgariy» va Sulton Muhammad Doroshukuhning (1615–1659) "Safinat ul-avliyo" asarlarida "Ravgariy" ko'rinishida eslatilgan bo'lsa, Abdurahmon Jomiyning (1414–1492) "Nafahot ul-uns" asarida "Ravgiraviy", Alisher Navoiyning (1441–1501) "Nasoyim ul-muhabbat" va Faxriddin Ali Safiyning (1463–1533) "Rashahot ayn al-hayot" asarlarida "Ravgaraviy" shaklida keltiriladi. Xojagon-naqshbandiya tariqatining keyingi asrlarda yaratilgan arabcha manbalarida bu nisbaning talaffuzi yanada o'zgaradi. Shuningdek, Xoja Muhammad Orifning nisbasi Abdulmajid Xoniy Naqshbandiyning (1847–1900) "Al-Hadoyiq ul-vardiya" asarida "Ravgiriy", Muhammad Amin Kurdiy Arbiliyning (1860–1914) "Mavohib as-sarmadiya" asarida esa "Ravaygiriy" ko'rinishida ham uchraydi. O'z tadqiqotlarida ko'proq xojagon-naqshbandiya tariqatining keyingi asrlarda yaratilgan arabcha manbalariga tayanadigan turk tasavvufshunosi Hasan Komil Yilmaz Xoja Muhammad Orifning nisbasini "Rivegariy" shaklida keltiradi. Biroq hozirgi zamon tadqiqotchilari, birinchidan, Xoja Muhammad Orifning tavallud topgan qishlog'ining nomi Ravgar bo'lganligi, ikkinchidan, ushbu so'fiyning o'zi «Orifnoma» asarida o'z nisbasini "Ravgariy" ko'rinishida keltirganidan kelib chiqib, uni Ravgariy shaklida eslatadilar.

Sadriddin Salim Buxoriyning "Xoja Orif Ar Ravgariy" nomli risolasi "Shariat – qonun, tariqat – yo'l".

Mashoyixlar haqqa yetmoq uchun shariat birinchi, tariqat ikkinchi, ma'rifat uchunchi, haqiqat esa to'rtinchi zina deb aytganlar" degan fikrlar keltirilgan. Xojagon tariqati – Markaziy Osiyo tasavvufiy maktablaridan biri bo'lib, uning asoschilari Xoja Yusuf Hamadoni (1048-1140) va undan keyin Xoja Abdulholiq G'ijduvoni (vaf. 1179) hisoblanadi. Xojagon tariqati tasavvuf olamida ma'naviy tarbiya va ichki tozalanishga urg'u beruvchi yo'l sifatida shakllangan. Xoja Orif ar-Ravgariy Abdulholiq G'ijduvoniyan ta'lim olgan va uning ta'limotlarini davom ettirgan shogirdlardan biridir. Ravgariy Abdulholiq G'ijduvoniyaning boshqa shogirdlari orasida tirishqoqligi bilan ajralib turgan.

Falsafa fanlari doktori, professor G.Navro'zova va D.Akobirovalarning "Orif Ravgariy" nomli risolasi, Orif Ravgariyga "Orif" nomining berilishi to'g'rida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: jumladan, - "Orif-irfon sohibi. Tom ma'nodagi haqshunos. So'fiylarning tushunchasida ilm-aqlga, irfon- tuyg'ularga asoslanadi. Orif bo'lmoq uchun kitobiy bilimlardan behad yuksalmoq kerak. Orif Alloh tomonidan baxsh etilgan "Laduniy ilm" bilan uning mavjudligini idrok etadi va mavhum borliqdan kechib, Tangri borlig'i bilan umr o'tkazadi. Orif illohiy fayzning odami. Ularning qalbi ilohiy nurning bulog'i" deya ta'rif berilgan.

Shuningdek risolada "Manoqibi Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni va Orif Ravgariy" asaridan Orif Ravgariy haqlaridagi quyidagi misralar keltirilgan:

Orif zi hazor podshoh afzun ast,

Doim ba huzuri hazrati bechun ast.

Bo tu ba jahonu az jahon berun ast,
Tu kay doni, holi Orif chun ast.

Mazmuni:

Orif Revgariy minglab podsholardan ustunroqdir,
Mudom hazrat o'xshashi yo'q - Oллоh huzurida hozirdir.
Sen bilan bu jahondayu, lekin jahondan tashqaridadir,
Sen hazrat Orifning holini qaerdan ham bilarding.

Yuqoridagi fikrlarni mulohaza qilar ekanmiz, - "Ilmi laduniy"ni Alloh boshqalarga bermagan fahm deb tushunsak, "Laduniy Ilm" egasi esa ilm yo'lida jidd-u-jahd qilgan, uni qidirgan, tinimsiz harakat qilgan kishiga beriladi, degan xulosaga kelish tabiiydir.

Risolani mutoola qilish jarayonida, Hazrat Orif Revgariyning valiy ekanliklari haqidagi fikrlarga ham guvoh bo'lamiz. Jumladan, "Xoja Orifda valoyat darajasi shunchalar yuksak ediki, u kishi kirgan hujra yorug' bo'lar edi. "Maqomotda" u kishi boshi ustiga Ka'ba kelib, soya solib turgani bayon etilgan. Manbalarda yozilishicha, Orif Revgariy yashagan davrda pok insonlar barchasi Xoja Orifning Jahonaro jamolini ko'rishga kelishgan". Bundan shuni angalsh mumkinki, Orif Revgariy ko'ngli pok, beg'araz. insonliklari bois, valiylik darajasiga yetganlar.

Orif Revgariy "Orifnoma" asarida "Barcha roh, yo'l, ravishda oxirgi maqsadga erishmoq ixlosli bandalar uchun faqat shu tarzda amalga oshgay. Bir maqom, darajadan ikkinchi maqomga ko'tarilmoq ahli naqliya va kashfiya uchun og'ir riyoziyatlar orqali hosil bo'ladi; zero hoy-u-havas va nafs amora yuqoriga ko'tarilmog'iga to'siqdir va ushbu qusurlar, illatlar barcha mo'min dilining buzilmog'iga bois hisoblanur". Bu hikmatdan shuni anglash mumkinki, kamolot sari intilayotgan bandalar ikki toifaga mansub bo'lib, ular naql asosida amal qiluvchilar va illohiy kashfiya asosida amal qiluvchilar, bularning har ikkisi ham haqqa intilishda riyoziyatga ya'ni qiyinchilikka duch keladi. Chunki haqqa yetishmoq uchun nafsni tarbiyalamoq, dunyo hoyu-havasidan kechmoq lozimdur, zero nafs amora, hoyu-havas barcha mo'minlarning dilining buzilishi, yo'lini yo'qotishiga sabab ekanligini Orif Revgariy ta'kidlaydilar. Shu bilan bir qatorda risolada, Orif Revgariy ta'kidlaydiki, "Zero hushyor bo'lsinki, alvaqtu sayfun qotiun! Ya'ni vaqt shamshir kabi keskindur! Turfatul aynni ham g'aflat bilan behuda o'tkazmasin va Haq Subhanollohu taolodan boshqa zot xayoli bilan xushxursand bo'lmasin!" Insonga berilgan umr juda qisqaligi, bandaga uni besamar o'tkazmaslik lozimligi uqtirilmoqdaki, zero besamar ketgan umr, Alloh zikri bilan band bo'lmagan, Haqqa yetish yo'lida nafsidan kechmagan, qalb, ruh va jismini poklashga urimagan omonat umr uchun javob bermoqlik muqarardir.

Naqshbandiya tariqatining ustozlaridan Turkiyalik Shayx Umar Foruq saydo al-Jazariy "O'zbekiston Avliyolar vatani" nomli kitoblari "Orif Revgariyning Abduxoliq G'ijduvoniylar hazratlarining huzurlarida yuksak xizmat bilan davom etish tufayli mashhur bo'lib fayz va barakotlarga erishdi. Himmat, inoyat va g'ayratlarini Alloh taolaga yaqinlik izlaganlarga sarf qildilar. Ko'plarining hidoyatga kelishiga, yuksak maqomlarga erishmog'iga sabab bo'ldilar", - deya ta'riflaydilar. Darhaqiqat, Orif Revgariyning hikmatlari insonni o'zini anglashga, axloqiy-ma'naviy jihatdan yuksalishga, nafsni yengishda, ruhini poklashga, botinini go'zal etib tarbiyalashda xizmat qiladi. Xususan ushbu: - "Ochlik zohidlar, zikr oriflar taomidur" deya ataluvchi hikmatni o'qir ekanmiz, bunga yana bir bor amin bo'lamiz. Bunda "zohid" arabchada tark etuvchi, iymon-e'tiqodli, xudojo'y ma'nolarini anglatib, zohidlar musulmonlarni Allohning zikriga xalal beruvchi barcha narsalardan voz kechishga chaqirgan kishilardir.

"Bu haqda noma'lim muallif tomonidan yozilgan "Maqomoti Xoja Abduxoliq G'ijduvoniylar va Xoja orif Revgariy" nomli asarda keltirilgan rivoyatga ko'ra, Abduxoliq G'ijduvoniylar huzuriga kelgan Xizir Xo'ja Orif Revgariyning uni ko'rish maqsadida uxlab qolmaslik uchun ko'ziga tuz solib olganligini ko'radida, uning kelajakda orif bo'lib yetishishini Allohdan so'rab duo qiladi. Ana shu duoning barakoti bilan keyinchalik u orif bir zotga aylanadi. Shu bilan birga Orif Revgariy karomat egasi bo'lganligi, manbada keltrib o'tilgan bo'lib, muallifning yozishicha unda shunday voqealar bayon etilgan: "Abduxoliq G'ijduvoniylar o'z muridlariga dars o'tayotgan joyning yaqinida aysh-ishrat va xunuk qiliqlar qilib, bu darsga xalaqit berayotgan chog'ida Revgariy ushbu bezorilarga "haybat nazari bilan" boqish orqali karomat ko'rsatib, ularni bir-biri bilan urushtirib qo'yadi. Natijada ulardan bir nechtasi bir-birini pichoqlab o'ldirib qo'yadi".

Mazkur asarda keltirilgan boshqa bir rivoyatga ko'ra, Xoja Orif Revgariy Buxoroning Niyozband mahalasi aholisi uchun karomatlar ko'rsatadi. Jumladan Husayniy Siddiqiyning "Matlab

FALSAFA

ul-tolibin" asarida jonzotlarni o'ldiruvchi murid ekanligi, bayon etilib, Revgariy bir imo qilganida birato'la 400 otning bo'ynidan qon oqa boshlagani aytib o'tilgan.

Xoja Orif Revgariy Xojagon tariqatining rivojlanishida muhim rol o'ynagan. U "zikr-i jahriy" (ovozli zikr) usulini qayta joriy etgan. Umrining so'nggi yillarida ovoz chiqarib zikr qilishni afzal ko'rgan va bu usulni o'z vorisi Mahmud Fag'naviyga o'rgatgan. Bu orqali odamlarni jaholat uyqusidan uyg'otishni va ularning e'tiborini zikrga qaratishni maqsad qilgan. Shu sababli, u "Pishuva-i orifon" (oriflarning peshvosi) nomi bilan tilga olingan.

Xoja Orif Revgariy o'zidan fors tilida yaratilgan "Orifnoma" nomli bir asar qoldirgan bo'lib, ushbu asarda muallifning sayru sulik bosqichlari, ma'rifat, oriflik, va valiylik hamda sayru suluk odoblari borasidagi qarashlari, shuningdek ustoz Abduxoliq G'ijduvoniyni hayoti, karomatlari va qarashlari bilan bog'liq ayrim ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Shuningdek, asarda tasavvufiy ta'limotning nozik jihatlari yoritilgan. Bu asar orqali u muridlariga ma'naviy tarbiya va kamolot yo'lini ko'rsatgan. "Orifnoma"dagi har bir jumla hikmat, har bir gapda olam-olam ma'no singdirilgan.

Xoja Orif Revgariy o'zining asari orqali nafaqat tasavvufiy aqida va ilmni targ'ib qilgan, balki insonning axloqiy kamoloti, ruhiy o'sishi haqida ko'plab maslahatlar bergan. Uning ta'limoti tasavvufning yuksak yo'li bo'lib, uning asari bugungi kunda ham zamonaviy mutafakkirlar tomonidan chuqur o'rganilmoqda. Xo'ja Orif Revgariyning falsafiy qarashlari uning tasavvufiy dunyoqarashida chuqur ifodalangan. Uning falsafasida insonning asosiy vazifasi o'zining haqiqiy mohiyatini anglash, Alloh bilan to'g'ri aloqaga kirish va dunyoqarashini yuksaltirishdir. Unga ko'ra, insonning maqsadi faqat tashqi dunyoni bilib olish emas, balki ichki dunyosini, ya'ni ruhiyatini tushunish va ulug'lashdir.

Xo'ja Orif Revgariy, insonni haqiqiy ma'naviy erkinlikka erishish uchun, avvalo, o'z ichki olamini anglashga chaqiradi. Uning fikricha, insonning hayotidagi barcha qiyinchiliklar va sinovlar aslida uning o'ziga bo'lgan qarashlarini va ruhiy holatini shakllantirishga xizmat qiladi. O'zining nafsini yengib, chinakam erkinlikka erishgan inson, nafaqat o'zining ichki dunyosini, balki tashqi olamni ham anglaydi va to'g'ri muomala qilishni o'rganadi.

Xo'ja Orif Revgariyning falsafasidagi eng muhim g'oya - inson o'zini tanish orqali haqiqiy erkinlikka erishishi va ilohiy hikmatni anglashidir. Bu erkinlik nafaqat tashqi dunyo bilan bog'liq, balki insonning ichki, ruhiy o'zgarishlari bilan ham bog'liqdir.

"Orifnoma"ni yozilish uslubi ham o'ziga xos. Muallif "Ayuhul Orif!" (Ey Orif) deb murojat qilib gap boshlaydi. Hikmatlarida inson va Alloh o'rtasida hijob, parda, to'siqlar mavjudligini aytib - bu hijob - dunyoga ko'ngilni bog'lash, nafsiga berilish, boylik, mansab, zohirparast bo'lish ekanligini, bundan qutilib pok bo'lishni aytadi. Jumladan, ushbu hikmatida "E Orif! Pok qalbli va e'tiqodli bo'! Zero chirkin ko'ngil, butun a'zoi badanni harom qiladi. Shuni bilki, Allohning bizni qabul etishi yoxud etmasligi aynan shu ko'ngil tufaylidir!" deya, insonni pok qalbli bo'lishga da'vat etganlar. Yana bir hikmatida Haq yo'lining boshi tavba ekanligi va istig'for aytish foydasi, ma'rifatli bo'lib, jaholatga qarshi kurashish haqida aytib, insonni ilm olishga undaydi.

Orif Revgariyning quyidagi hikmatlarida:

"Payg'ambarimiz shariatlariga amal qil. Dunyo moliga aldanma, undan hazar qil, nafsingni pok tut!", "Alloha olib borguvchi yo'l - xuddi soch tolasidek nozik va ingichkadur, toyib yiqilishdan hushyor bo'!", "Alloh taolo mehnatiga va mehnatidan keladigan ne'matga shukur qiluvchilardan rozidur!", - deya, insonni o'z nafsini tarbiyat etishga, Haqqa yetishmoq yo'lida har doim o'zni nazorat qilishga, Alloh rizoligi uchun halol mehnat qilishga uning ortidan topilgan ne'mat halovat keltirishiga ishorat qilgan bo'lsa ajab emas.

Sadriddin Salim Buxoriyning "Xoja Orif Ar-Revgariy" nomli kitoblarida "Xoja Orifning muridlaridan bo'lgan Muhammad Xodim bir kun Hazrat Xoja Orifdan shayx Abu Sa'id xizmatiga borish uchun ijozat so'raydi. Xoja Orif unga: "U yerga borishing sababi ne?" deb savol beradilar. U: "Har kim shayx Abu Sa'id huzurlariga borsa, uchta shapaloq yer ekan. Shayadki, shayxning muborak qo'llari mening boshimga tegsa, buning barakatidan Xudoyi taolo meni rahmat qilsa" deb javob berdi. Hazrat Orif ar-Revgariy unga ruxsat berdilar. Muhammad Xodim borib, Hazrat Abu Sa'id huzurlariga yetdi. Shayx unga xonaqolariga kirishga ruxsat berdilar. Xodim xonaqoga shayxdan avval kirdi. Dasturxon hozir qilindi. Shayxning o'zlari Muhammad Xodim qo'lga suv qo'ydilar. Muhammad Xodim qo'lini yuvdi va artmadi. Shundan so'ng Xodim og'zining chap tomoni bilan taomni chaynab yeya boshladi. Shayx undan: "Isming nima?" - deb so'radilar. Xodim esa: "Ma'zur tutsinlar, og'zimning o'ng tomoni shamollab shishgan" - deb javob berdi. Shayxning asxoblari

tabassum qildilar. Shunda Shayx: “Haq taolo sening shayxingning xonadonini ma’mur qilsin!” – deb duo qildilar.

Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilish mumkinki, insonning farosati qanchalik baland bo’lsa, u o’zi bilan muloqotga kirishayotgan shaxsning qalbidagi fikrlarini so’zlamasidan ham anglab yeta oladi. Demak inson bir-birini ruhan his qilishi, ongidagi fikrlaridan boxabar bo’lishi bu farosat ilmidan bahramandligidan dalolatdir.

Xo’ja Orif Revgariy axloqiy jihatdan yuksak fazilatlarni rivojlantirishni insonning hayotdagi eng muhim vazifasi deb bilgan. Uning axloqiy qarashlari, tasavvufning murakkab tizimidan chiqib, insonlarning o’zaro munosabatlarini va ichki dunyosini to’g’ri yo’lga solishga qaratilgan. Axloqning asosiy tamoyillari sifatida u sabr, tavoze, xushxulqlik, ehtiyotkorlik va mehr-muhabbatni ko’rsatgan.

Unga ko’ra, axloqiy fazilatlar, insonning ichki dunyosining pokligi va Allohga bo’lgan muhabbatining ifodasi sifatida ko’riladi. Xo’ja Orif Revgariy, o’z asarlarida, insonlarning o’zaro munosabatlarida hamda jamoat hayotida yaxshi xulqni shakllantirishga katta ahamiyat bergan. U axloqiy jihatdan mukammal insonning sifatlarini o’rganib, uni jamiyatda qanday targ’ib qilishni muhim deb bilgan.

“Orifnoma”da Orif Revgariy insonga shunday da’vat qiladi: - “Ayuhal Orif! Murshid (pir) uldirmek, xalqni dunyodan uxroga (oxiratga) va ma’siyat (gunohdan) toatga va hirsdan-zuhd (biror narsadan voz kechish)ga va baxllikdan-saxovatga va kibirdan tavozega, g’aflatdan ogohlikka, g’ururdan parhezkorlikka chorlagay! Va oxirat do’sti va dunyoviy zebu ziynat dushmaniga aylantirsin. Va Alloh taoloning: “Mag’firat etaman!” deb bergan va’dalariga mag’rur bo’lmaslikka va tarsakori - qo’rqish (Alloh taolo g’azabidan) ilmini o’rgatsin.” Bu hikmatni sharhlar ekanmiz Pir ya’ni ustoz xalqni faqat yaxshiliklarga, ezgulikka chorlashi, zebu ziynat dushmaniga aylantirib, oxirat do’sti bo’lishga, har qanday holatda ham Alloh mag’firat etadi deb nojo’ya ishlarni qilmaslikka undashi, Allohning g’azabidan qo’rqish ilmini o’rgatishi lozim degan ma’nolarni tuyamiz.

Orif Revgariy “Islom asosi uch narsadadur: birinchisi har toate ibodatekim aylarsiz – aning ilmidan voqif bo’ling! Har ilmniki o’rganibsiz – unga amal qiling! Har amalniki etgaysiz –sidqu ixlos bilan ado etgayzsiz!”, -bu hikmatida insonning so’zi va amali bir xil bo’lmog’i, qiladigan har bir amalining ilmini bilishi lozimligini uqtirmoqda.

Xo’ja Orif Revgariy o’zining asarida tasavvufiy va axloqiy masalalar bo’yicha chuqur tahlillarni keltirgan. Uning asari o’z ichiga insonning ichki olami, dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlar va ruhiy yuksalishning mohiyatini tushuntiruvchi tafakkurlarni oladi. Orif Revgariyning “Orifnoma” asari hozirgi kunda ham oilada farzand tarbiyasi, jamiyatimiz rivoji va davlat taraqqiyoti yo’lida xizmat qiluvchi, halol, pok, yuksak axloqiy fazilatli shaxsni kamol toptirishda muhim qo’llanma sifatidasifatida xizmat qiladi. Xo’ja Orif Revgariy tasavvuf ilmida katta o’rin tutgan. Tasavvuf, uning fikriga ko’ra, insonning ruhiy o’sishiga va ma’naviy kamolotga erishish uchun eng yaxshi yo’ldir. Tasavvufda maqsad - nafaqat Allohga yaqinlashish, balki insonni toza qalb, pok ruh va yaxshi xulq bilan yuksaltirishdir. Xo’ja Orif Revgariy, tasavvufni insonning o’z nafsini yengib, haqiqiy erkinlikka erishish yo’li deb bilgan.

U, shuningdek, o’z hikmatlarida mukammallik va kamolotga erishish uchun, insonning har bir harakati Allohning roziligini olishga hamda yuksak ahloqiy fazilatlar va ruhiy poklikka erishishga va ilohiy ilmlarni egallashga qaratilgan bo’lishini aytib o’tgan.

Xo’ja Orif Revgariyning fikriga ko’ra, axloqiy yuksalish uchun odamlar o’z xatti-harakatlarini to’g’ri nazorat qilib, o’zlarini yaxshi xulqlarga yo’naltirishi kerak. Yaxshi xulq nafaqat insonning o’zini, balki jamiyatni ham yuksaltiradi.

XULOSA

Xoja Orif Revgariy hayoti va ma’naviy merosi bugungi kunda ham ahamiyatini yo’qotmagan. Uning tasavvufiy ta’limoti insonlarni ma’naviy kamolotga chorlaydi. Zamonaviy jamiyatda uning g’oyalari ma’naviy tarbiya va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim manba bo’lib xizmat qiladi. Xoja Orif Revgariy merosini o’rganish va uni targ’ib qilish orqali yosh avlodni ma’naviy yo’naltirish mumkin.

Xo’ja Orif Revgariyning ma’naviy me’rosidagi falsafiy va axloqiy g’oyalar zamonaviy jamiyatda ham dolzarbdir. Insonning axloqiy fazilatlarni rivojlantirish va ruhiy yuksalishga intilish bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1.Наврўзова Г.Н, Ақобирова Д.Ж. Ориф Ревгарий. –Тошкент: “Парадигма”, – 2018. - 64 б.

FALSAFA

2. Раҳимов Комилжон Хожа Ориф Ревгарий ва унинг “Орифнома” асари қўлёзма нусхалари ҳақида. Infolib ахборот-кутубхона журнали, – 2024. - №1. 79-87 б.
3. Садриддин Салим Бухорий. Хожа Ориф ар Ревгарий. – Бухоро: “Бухоро”, - 2007. 47 б.
4. Хўжа Муҳаммад Ориф Ревгарий. Орифнома. – Тошкент: Splendid, – 2021. - 3 б.
5. Хожа Ориф Ар- Ревгарий. Орифнома. – Тошкент: Наврўз, 1994. - 47 б.
6. Хожа Ориф Ревгарий ҳақида мақолалар тўплами. уз.википедиа.орг.
([ҳттпс://уз.википедиа.орг/вики/Ревгарий_Хожа_Ориф](https://uz.wikipedia.org/wiki/Ревгарий_Хожа_Ориф)) 7 б.
7. Шайх Умар Форук ал-Жазарий-Нақшбандий .ЎЗБЕКИСТОН АВЛИЁЛАР ватани. – Тошкент: “Сано-стандарт” нашриёти, – 2019. - 175 б.